

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
MINTAQAVIY BO'LIMI  
XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA'MUN  
AKADEMIYASI  
AXBOROTNOMASI**

Axborotnomma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo'jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

**2025-3/4  
Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi  
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

**Xiva-2025**

<b>Rahmonova D.Yu.</b> Zamonaviy tilshunoslikda dizayn va rassomchilik sohasiga oid terminlarning tavsifi	239
<b>Rahmonqulova Yo.T.</b> Ingliz va o'zbek tillarida somatizmlarni ifodalovchi topishmoqlarning struktur va sintaktik xususiyatlari	243
<b>Ro'ziyev Q.T.</b> Til o'rganuvchilar uchun lug'atlaridan samarali foydalanishdagi muammolar	246
<b>Sabirova N.K.</b> Chet tillarda madaniyatlararo muloqotni o'rgatishning dolzarb masalalari	250
<b>Sadinov O.Z.</b> O. Henry ijodi va o'zbek adabiyotida hikoya janrining o'ziga xos o'xshashliklari	252
<b>Sadullaev F.B., Sattorova O.J.</b> The socio-historical foundations of 20th century u.s modern literature	255
<b>Saidova I.</b> Ogahiyning "Gulshani davlat" asari – tilshunoslikka oid qimmatli manba	258
<b>Saidova M.U., Sayfiyeva M.S.</b> Ingliz badiiy diskursida kogeziyaning stilistik funksiyalari va uning kogerensiyaga ta'siri	261
<b>Saidova M.U., Tursunova S.G'.</b> O. Henrining qisqa hikoyalarida sintaktik uslubiy vositalarning ifodalaniishi	264
<b>Samatova Z.Q.</b> Alogizm tamoyiliga asoslangan uslubiy vositalarning tasnifi tamoyillari	267
<b>Sattorova F.Sh.</b> Mustaqillik davri bolalar adabiyotida "hikoya" janrining badiiy-g'oyaviy xususiyatlari	270
<b>Sharapova G.Sh.</b> Moral and educational issues in Saadi Shirazi's "Gulistan"	274
<b>Sharifov S.Z.</b> Omon Muxtorning «To'rt tomon qibla» romanida badiiy xarakter ifodasi	276
<b>Sharipova M.Kh.</b> Literary portraits of khans in 16th-century tazkiras: social and cultural context	278
<b>Shimanskaya D.B.</b> Dialogue in the novel "Their eyes watching god" and metaphorical interpretation of the consciousness of two races	282
<b>Shomuratova O.X.</b> O'zbek va rus tillarda belgilovchi atov birliklarining funksional - semantik xususiyatlari	285
<b>Shukurova Z.</b> Bedil ijodida "sabki hindiy" uslubi	288
<b>Suleymanova N.M., Zaxidova G.T.</b> Ingliz va o'zbek tillaridagi sintaktik tuzilmalar va nutqning shakllanishi	291
<b>Tog'aymurodova S.S.</b> Muqobilsiz leksikaga oid birliklarni ikki tilli o'quv lug'atlarida talqin qilish tamoyillari	294
<b>Toshmamatova S.K.</b> Badiiy psixologizm genezisi	297
<b>Toshpulatov B.B.</b> Jorj Gordon Bayron she'riy asarlarida adabiyotshunoslarning fikrlari	299
<b>Turaqulova D.Q.</b> Time's arrow in shakespeare's sonnets: a multifaceted exploration	302
<b>Turdaliyeva D.S.</b> Publitsistik nashrlarda maqollarning tutgan o'rni	305
<b>Turdiyeva K.U.</b> The importance of the translator in intercultural communication	307
<b>Tursunmurodova D.R.</b> Alisher Navoiyning ikki qit'asi tahlili	309
<b>Uluqov N.</b> O'zbek xalq bayramlari bilan bog'liq paremalarning lingvokulturologik tahlili	311
<b>Unarova D.A.</b> Chastotali lug'at asosidagi tahlil usullari, tahlil vositalari va ahamiyati	314
<b>Usanova S.S.</b> Sharq malikalarining badiiy talqini	319
<b>Usmonova Sh.Yo.</b> Comparative analysis of toponyms in english and uzbek languages	322
<b>Xamzaev S.A.</b> O'zbek tili hududiy shevalarining uning leksik qatlaming shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri	324
<b>Xasanova N.</b> Ingliz tilida anatem illokutiv aktni hosil qiluvchi lisoniy vositalar	328
<b>Xudayarova D.Sh.</b> Komil Xorazmiy muxammaslari haqida	330
<b>Yaxshiyeva Z.R.</b> Husayn Jovid ijodida ikki tarixiy shaxs munosabati tahlili	334
<b>Yo'ldashmirzayeva M.B.</b> Reklamalarda til va tasvir sintezi	339
<b>Yuldashev E.</b> Komil Xorazmiy devonida takrorlarning lingvopoetik imkoniyatlari	342
<b>Yusupova F.A., Eshmuratova D.U.</b> Tarjimada tag matnning lingvistik xususiyatlari	347
<b>Yusupova S.A., Mamajonova Z.Sh.</b> Hurmat ifodalashda paralingvistik vositalarning nazariy asoslari	349
<b>Yusupova S.A., Po'latova K.Sh.</b> Ingliz va rus tillarida hurmat tushunchasining lingvistik tadqiqi	352

## BEDIL IJODIDA “SABKI HINDIY” USLUBI

*Z.Shukurova, dots., PhD, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** *Mazkur maqolada Bobur ta’sirida Hindiston adabiy muhitida shakllangan sabkiy hindiy uslubining paydo bo‘lishi va uning Bedil g‘azallarida taraqqiy etishi bayozlarga kiritilgan g‘azallari asosida ochib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *bayoz, Bobur, Hindiston, Bedil, Sabki hind, shoir*

**Аннотация.** В данной статье раскрывается возникновение индийского стиля сабки, сформировавшегося в литературной среде Индии под влиянием Бабура, и его развитие в газелях Бедиля на основе газелей, включенных в Баяз.

**Ключевые слова:** *Баяз, Бабур, Индия, Бедил, Индианец Сабки, поэт.*

**Abstract.** *This article explores the emergence of the early Hindi style, which was formed in the Indian literary environment under the influence of Babur, and its development in Bedil's ghazals, based on the ghazals included in the Bayazes.*

**Keywords:** *Antologiy, Babur, India, Bedil, Ancient India, poet*

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida tuzilgan bayozlar O‘rtal Osiyoning chet el shoirlari bilan adabiy aloqalari xususida muhim ma’lumotlarni beruvchi manba hisoblanadi. “Bayozlar faqat mahalliy xalqlarninggina emas, shu bilan birga, qo‘sni xalqlarning atoqli shoirlaridan, jumladan, Mirzo Bedil, Fuzuliy, Maxtumquli va h.k. namunalar berilishi jihatidan adabiy aloqalar va qalamkashlarning o‘zaro ijodiy hamkorliklarini o‘rganish uchun ham muhim manba hisoblanadi”. Bayozlarni tadqiq qilish xorijiy davlatlarning O‘rtal Osiyo bilan adabiy aloqalari masalasini ham oydinlashitirib, bunda hind shoirlarining ulushi salmoqli o‘rinni egallaydi. Hindiston shoirlarining o‘zbek mumtoz adabiyotiga ta’siri ikki xalq o‘rtasidagi adabiy aloqalar natijasi bo‘lib, bu hamkorlik bir necha asrlik tarixga borib taqalishini ko‘rsatadi. Ikki davlat o‘rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy aloqalar turli davrlarda goh jadallahib, goh sustlashgan bo‘lsa-da, butkul to‘xtab qolgani yo‘q.

Til, madaniyat, adabiyotning chatishuvi shoirlarning she’r yozish uslubiga ham ta’sir etdi. “XV asrning 2-yarmidan boshlab Hindiston adabiyotlarida g‘oyaviy yo‘nalish hamda badiiy yuksalish sohasida katta o‘zgarishlar yuz berdi”. Boburning O‘rtal Osiyo va Erondan ko‘plab ijod ahlini Hind yerlariga jalg qilishi natijasida shoirlar go‘zal asarlar yaratib, uning madaniyatini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘sishgan. “Badauni Movaraunnahr dan chiqqan kalomi chig‘atoy shoirlar haqidagi qaydlarida, umrining asosiy qismini Hindistonda o‘tkazgan shoirlar she’rlarini Movaraunnahr uslubida yozganligini ta’kidlaydi”. O‘rtal Osiyolik, eronlik va hindistonlik shoirlarning bir hududda o‘zaro hamkorlikda yashab, ijod qilishi natijasida “sabki hindiy” uslubi yuzaga kelgan. Bu uslub Movaraunnahr uslubiga ancha yaqin turadi. Har ikki uslubda ham tashbehlardan foydalaniladi. Biroq “Sabki hindiy” uslubi murakkab tashbehtar asosida quriladi. Uni tushunish uchun insonda islom ilmi, hind adabiyoti va hayot falsafasini teran mushohada qilish talab etiladi. Ijodkor tasvirlamoqchi bo‘lgan obrazini qanday tasavvur qilsa, shunday ifodalaydi, biroq kitobxon teran ilmi, aqliy mushohadasi va tasavvur dunyosini ishga solib, uni anglay olishi kerak. Shu sababli sabki hind uslubining shakllanishida Movaraunnahr uslubining o‘rni katta. “Hind adabiyotchisi Shibli Nu’monning ko‘rsatishicha, she’riyatdagi “sabki hind” uslubi Hindistonga kelib, turg‘un bo‘lib qolgan fors-tojik shoirlariga hind tabiatiga va hind ijtimoiy hayotining ta’siri natijasida vujudga keldi. Bu uslubda yozilgan asarlar mazmuni, asosan, didaktik xarakterdagi qadimiy hind afsonalari asosida bo‘lib, ular fors-tojik adabiyotidagi falsafiy dunyoqarash bilan sug‘orilgan asarlardir. “Sabki hind” O‘rtal Osiyoda “bedilxonlik va bedilshunoslik” nomi bilan mashhur bo‘lgan edi”. Demak, sabki hind uslubining shakllanishida, eng avvalo, Movaraunnahr uslubi asos bo‘lgan, bundan tashqari fors-tojik tilida ijod qilgan shoirlarning bir joyda to‘planishi va hind xalqining qadimgi afsonalari va falsafiy qarashlari ta’sirida bu uslub takomillashgan. Bedil ijodi ko‘p yurtlarda mashhur bo‘lib, O‘rtal Osiyoda uning muxlislari nihoyatda ko‘p bo‘lgan. “Shuni aytish mumkinki, Bedilning hayotlik davridayoq

O'rta Osiyoda uning ko'p sonli o'quvchi va muxlislari bo'lgan. Buning asosiy sababi, avvalo, shundaki, O'rta Osiyo bilan Hindiston "dar miyon" qo'shni mamlakat bo'lib, ular bir-birlari bilan yaqin, siyosiy, qizg'in iqtisodiy va madaniy aloqada bo'lganlar. ... Bedilning viloyat kishilar so'zlaydigan fors, ya'ni fors-tojik tilida ijod etishi muhim o'rinn tutgan". Hattoki yosh bolalarga ham Bedil g'azallari yodlatilgan. Madrasalarda esa Bedil ijodiga alohida ahamiyat berilib, tuziladigan darslik va bayozlarda shoir ijodi Jomiy, Navoiy, Fuzuliylar bilan birga kiritilgan. Hattoki Bedilning ijodidan tuzilgan alohida to'plamlar ham tuzilib, har bir xonodon egasi unga egalik qilishni va Bedil ijodini mukammal bilishni sharaf deb bilishgan. Bundan tashqari uchchala xonlikda tuzilgan bayozlar tarkibida Bedil eng faol va ko'p murojaat qilingan shoir hisoblanib, tuzilajak bayozlar uning ijodisiz quruq va rangsiz hisoblangan. "Toshkent, Qo'qon, Buxoro, Andijon, Xiva, Samarcand, Namangan va Farg'ona kabi adabiy an'analarga ega bo'lgan markazlarda "bedilxonlik" kechalari uyuşhtirilganligi, bu shoirning ayrim asarlarini sharhlashga g'oyat qiziqish bilan qaralganligi, hatto "falonchi bedilxondir" deyish har bir muxlis uchun sharaflı bir baho bo'lganligini bilamiz. Asarlari aksariyat allegoriyalarga, kinoya va istioralarga, ramzlarga boy bo'lgan Bedil erkin fikr va insoniy baxtning otashin taronasizi bo'lgan". Shaxsiy kutubxonamizga sovg'a qilingan bayozda ham Bedil g'azallari ko'p uchraydi. Qo'qon xonligida 1307/1889-yilda tuzilgan ushbu bayoz boshqa bayozlarga qaraganda ancha mukammal ishlangan. Negaki u o'ta kamyob hodisa hisoblangan zamonaviy mundarija asosida tuzilganligi bilan ajralib turadi. Manbaning 54-sahifada Bedilning quyidagi g'azali keltiriladi:

### غزل بيدل

شبکه طوفان جوشی چشم ترم آمد به ياد  
فکر دل کردم بلای دیگرم آمد به ياد

(*Tunda to 'fon bo 'lgan chog 'da ko 'zimdag'i yoshim yodimga tushdi,  
Dilni o 'ylaganimda boshqa bir balo yodimga keldi.*)

G'azal matla'sida Bedil tunda yolg'izlikda o'zining tuyg'ularini eslaydi. Ko'z yoshlari to'fonga aylanib, qalbdagi og'riqlar, armonlarini qo'zg'aydi. Tunda eslashed - bu qalbning poklanishiga ishora. Qalbining holatini fikr qilayotganda o'tmishdagi boshqa bir og'riqli voqeа yodiga tushdi. Demak, bu oldingi voqeа uning fikrlarini bir og'riqdan boshqasiga o'tkazdi, bu holat qyinoqlar bilan to'lган qalbini ko'rsatadi.

ذره را دیدم پرافشان هوای نیستی  
 نقطه‌ای از انتخاب دفترم آمد به ياد

(*Zarrani ko 'rganimda yo 'qlik havosida uchib yurar,  
(va bu) men tanlagan daftar nuqtasini eslatdi.*)

Ikkinci baytda Bedil zarrani ko'rganligini, ya'ni zarra misolida insonni ko'rganligini aytadi. Inson zarradek kichik va foni bo'lsa-da, maqsadi sari intilishini mushohada qiladi. (Par afshon) qanot qoquvchi yuksaklikka intiluvchi mavjudot. (Havoi nesti-Yo'qlik havosi) dunyoviy hoy-u havasdan qutulish va Allohga yaqinlashish. Zarra yo'qlik havosida harakat qilishi uni ma'naviy intilishini ko'rsatadi. Ikkinci misrada Bedil o'tmish hayotida muhim bo'lgan bir tanlovini eslaydi. Bu tanlov uning kelgusi yo'lini belgilagan Nuqta muhim qarorning boshlanganini eslatadi. (Nuqta fors she'riyatida kichkinalikni, ibtidoni, had va intiho ma'nolarini ifodalaydi).

سجده منظورکى ام نقش جيئن جوش زد  
خاک جولانکه خواهم شد سرم آمد به ياد

(*Sajdadan peshonamdag'i naqsh jo 'sh urdi, maqsadim kim?  
Javlon tuprog'i bo 'lajakmen, boshim yodimga tushdi.*)

Baytda shoir Allohga ko'p sajda qilganligidan paydo bo'lgan naqshi jabinni eslatadi. Ma'lumki, sajda Allohga bo'yin egish, naqshi jabin esa sajda qilganda paydo bo'ladigan iz, haqiqiy muhabbat va ibodatning shakliy ifodasi, jo'sh zad - sevgi va arfoniy holning qaynog'i deb talqin qilinadi. Xoki javlongah xoham shud - shoirning haqirliga va taslimiyat holati, yani u o'zini kamtarin mavjudot deb biladi, taqdirga bo'ysinadi. Saram omad ba yod-yoshlikdagi holati yoki hayotni o'tkinchiligi eslashed, deb talqin qilinadi.

جراتم از خجلت بېستگاهى داغ كرد  
ناله شد پرواز تا عجز پرم آمد به ياد

(*Menda o'zimning sharmandaligimdan jur'at paydo bo'ldi,  
Nola(m) parvoz etib, notavonligim yodimga tushdi.*)

Baytda “Ishonchim qo‘limdan hech narsa kelmasligi sababli hijolatdadir (dog‘ kard-ma’naviy iz qoldirish)”, – deydi shoir. Umuman olganda, shoir imkoniyati yo‘qligidan paydo bo‘lgan hijolat va ojizlik hissini tasvirlab bu holat uning jasoratiga iz qoldirganini ta’kidlamoqda. (Nola shud parvoz-nolani parvozga qiyos qilgan ya’ni og‘riq va alam yuksalish sababchisiga aylangan. Inson qiyinchilik orqali ma’naviy kamolotga erishadi. *Ajzi puram omad ba yod* birikmasida shoir insonning chegaralanganligi va ojizligi haqidi tafakkur qiladi.

تا سحر بىپرده گردد شېنم از خود رقته است  
الوداع اى همنشينان دلبرم آمد به ياد

(*Sahar pardasini tashlagunicha shabnab o‘zidan ketib bo‘ladi,  
Alvido, ey yoronlar, dilbarim yodimga tushdi.*)

Subhi sodiq, ya’ni tongning nurlari bilan kunning boshlanishiga ishora “parda gardi”dan - sirli va noaniq narsa oshkor bo‘ladi. Shabnamning tong nuri (yoki issiqlik natijasi)da o‘zidan voz kechishi (buxorlanishi) bu foniylidkan abadiylikga yuzlanishi nazarda tutilgan. Umuman olganda, baytda insonning yorug‘likka intilishi, o‘z nafsidan voz kechib, ma’naviy yuksalishga intilishi nazarda tutiladi.

با کدامين آبرو خاک درش خواهی شدن  
داغ شو اى جبهه دامان ترم آمد به ياد

(*Qaysi obro‘ bilan eshigini tuprog‘i bo‘lish mumkin?  
Ey peshona, qaynoq bo‘lgin, ho‘l etagim yodimga tushdi.*)

Shoir ma’lum bir ishni amalga oshirish uchun inson qanday ma’naviy va moddiy kuchga ega ekanini so‘raydi. “Xok” – kamtarlik. Inson qanday obro‘ va maqsad bilan yerga qo‘silishi yoki hayot yo‘lini tugatishni fikr qiladi. *Dog‘ shav* – bu qalbdagi iz shoir qalbning fido bo‘lishiga og‘riq va ta’sir qoldirishiga ishora qiladi. *Ey jabha* (peshona) – insonning ibodat qilish ramzi sifatida qo‘llangan. Ko‘z yoshlari bilan namlangan etak, insonning ojizligi, ruhiy holatini eslatadi.

بىدل اظهار كمال محو نقصان بوده است  
تا شىكست آيىنە، عرض جوھرم آمد به ياد

(*Bedil kamolim izhori nuqsonlar (oldida) mahv bo‘lди,  
Oyna sinishi bilan aslimming qadri yodimga tushdi.*)

Shoir komillikni faqat nuqsonlardan mahrum bo‘lish orqali anglaydi. Mahvi nuqson-kamchiliklarni tushunish ularni yo‘q qilish va ular orqali yuksalish nazarda tutiladi. Bedil nuqsonlarni tan olgan holda komillikka erishish g‘oyasini ilgari surgan. Bedilning ushbu g‘azali chuqr falsafiy ma’noga ega bo‘lib, hayot falsafasini anglashda inson naqadar ojizligi va foniyligi haqida so‘z borgan. Murakkab tashbeh, ramz va istioralarga boy chuqr va o‘tkir ma’noga ega Bedil gazallarini tushunish uchun insonda kuchli bilim va tafakkur kerak bo‘ladi. Shu sababli ham mumtoz shoirlar va she‘r ixlosmandlarining Bedilga talpinishi bejiz emas. Sabki hind uslubida go‘zal namunalar yaratgan Bedil ijodiga qiziqish bayozlarda ayniqsa yaqqol seziladi. Biroq “Hind uslubi ancha vaqtgacha fors adabiyoti tadqiqidan chetda qolib ketdi. Bugungi kunga kelib bu uslub, ya’ni hind uslubi doimiy nazoratda, qaytadan o‘rganilib uning fors adabiyoti tarixidagi o‘rni va joyi haqida tadqiqotlar olib borilmoxda”. Haqiqatda ham, bu uslub naqadar boy merosga ega bo‘lsa-da, hanuzgacha u haqida yetarlicha tadqiqotlar olib borilmagan. Shu sababli hozircha biz bu uslub haqida tugal fikrni bera olmaymiz. Uni alohida monografik tadqiq qilish talab etiladi. Biz ushbu faslda bayozlarda faol uchragan Bedil ijodi misolida ko‘rsatib berishga harakat qildik. Umuman olganda, XIX asr oxiri va XX asr boshida tuzilgan bayozlarni o‘rganish va tadqiq qilish o‘zbek mumtoz adabiyoti namunalarini o‘rganish, yangi shoirlarni kashf etish bilan birgalikda turli millatga mansub shoirlar ijodining o‘zbek mumtoz adabiyotiga ta’siri masalasini ham o‘rganishda muhim manba bo‘lishi aniqlandi. Zahiriddin Muhammad Bobur sa’y-harakati va tashabbusi bilan O‘rta Osiyo va Hindiston aloqalarining mustahkamlanishi, shoirlarga ilm ahliga bo‘lgan e’tibori natijasida ikki xalq o‘rtasida adabiy aloqalar yanada mustahkamlandi. Ayniqsa, O‘rta Osiyo, Eron va Hind shoirlarining bir hududda o‘zaro hamkorligi natijasida Hindistonda “sabki hindiy” uslubi shakllanib, dunyo tan olgan Mirzo Bedillarni yetishtirdi. Shuningdek O‘rta Osiyoda necha asrlardan buyon o‘zaro hamkorlik

qilgan Eron va Afg'oniston shoirlarining ijodi bayozlarda o'rin olishi bu ikki xalq madaniyatining O'rta Osiyo madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lganligini ko'rsatadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. – Тошкент: 2019.
2. Низомиддинов Н. Хиндиистон туркийзабон адабиёти. – Тошкент: 2005.
3. Низомиддинов И. Ўтра Осиёнинг чет эл шарқи билан муносабатлари. – Тошкент: Ўздавнашр, 1961.
4. Низомиддинов И. Мирзо Абдулқодир Бедил. – Тошкент: 1970.
5. Норик Б. Биобиблиографический словарь среднеазиатской поэзии (XVI – first third XVII). – Москва. Издательский дом Марджаний, 2011.
6. Кодирова М. XIX аср ўзбек шоирлари ижодида инсон ва халқ тақдиди. – Тошкент: Фан, 1977.

**UO'K 811.512.133****INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI SINTAKTIK TUZILMALAR VA NUTQNING SHAKLLANISHI**

*N.M.Suleymanova, dots., PhD, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand*

*G.T.Zaxidova, stajyor-o'qituvchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining sintaktik tuzilmalari hamda nutq shakllanishining xususiyatlari o'rganiladi. Ingliz tili qat'iy so'z tartibiga asoslangan bo'lsa, o'zbek tili erkinroq tuzilishga ega. Maqolada har ikki tilning sintaktik tuzilmalari tahlil qilinib, nutq shakllanishiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

**Ключевые слова:** синтаксическая структура, порядок слов, формирование речи, английский язык, узбекский язык.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются синтаксические структуры английского и узбекского языков, а также особенности формирования речи. Если английский язык опирается на строгий порядок слов, то узбекский обладает более свободной структурой. В работе анализируются синтаксические различия этих языков и их влияние на формирование речи.

**Kalit so'zlar:** sintaktik tuzilma, so'z tartibi, nutq shakllanishi, ingliz tili, o'zbek tili.

**Abstract.** This article examines the syntactic structures of English and Uzbek languages, as well as the characteristics of speech formation. While English relies on a strict word order, Uzbek has a more flexible structure. The study analyzes the syntactic differences between the two languages and their impact on speech formation.

**Keywords:** syntactic structure, word order, speech formation, English language, Uzbek language.

**Kirish.** Har bir tilning sintaktik tuzilmasi o'ziga xos bo'lib, o'sha tilning grammatik qonuniyatlari, so'z tartibi va gap tuzish qoidalariga asoslanadi. Ingliz va o'zbek tillari o'zlarining lingvistik tizimlari va nutq shakllanishi bo'yicha keskin farqlarga ega bo'lsa-da, ularning o'rganilishi tilshunoslikdagi muhim masalalardan biridir. Ingliz tili analitik tillar guruhiga kirib, so'zlar o'rniga katta ahamiyat beruvchi sintaksisiga ega bo'lsa, o'zbek tili agglutinativ xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarining sintaktik tuzilmalari, ular o'rtasidagi asosiy farqlar va nutqning shakllanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Ingliz va o'zbek tillari sintaksisi, ya'ni jumlalarni tashkil etuvchi elementlarning o'zaro munosabati va tuzilishi, bir-biridan farq qiladi. Har ikkala tilning o'ziga xos sintaktik xususiyatlari bor va bu xususiyatlar har bir tilning nutqni shakllantirish usullarini belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** 1. *Sintaktik tuzilmaning mohiyati.*

Tilning sintaktik tuzilmasi deganda, gap tarkibidagi so'zlar va ular orasidagi grammatik aloqalarning tartibi tushuniladi. Ingliz tilida gapning asosiy elementi fe'l bo'lib, gapning grammatik shakllanishida muhim rol o'ynaydi. O'zbek tilida esa qo'shimchalar va ergashgan gaplar orqali bog'lanish ko'proq kuzatiladi. Ingliz tilining sintaktik tuzilmasi asosan SVO (Subject-Verb-Object) tartibida tashkil topadi. Bu degani, ingliz tilida jumla odatda avval subyekt (mavzu), so'ng fe'l (harakat) va keyin ob'yeqt (to'ldiruvchi) bo'ladi.